



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

TA'LIM-TARBIYA TIZIMI TARAQQIYOTINING YANGI BOSQICHI

Zahiradagi leytenant Qo'chqorov Sobirjon Ahadjonovich

Farg'ona davlat universiteti

*Harbiy ta'lim fakulteti boshlig'ining ilmiy ishlar va innovasiyalar
bo'yicha o'rinbosari.*

"Har bir davlat xizmatchisi har kuni o'zining mehnati bilan egallab turgan lavozimiga loyiqligini isbotlashi kerak".

Sh.M.Mirziyoev

Annotatsiya: *Ushbu maqolamda mamlakatimiz mustaqilligining ilk kunlaridan boshlab ta'lim-tarbiya masalalariga davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri sifatida qaralib kelinmoqda.*

Bu borada barchaga ibrat bo'la oladigan mutafakkirlarimiz bor. Biz bundan faxrlanishimiz, ularning yo'llarini davom ettirishimiz va saboqlarini hayotga tadbiq etishimiz kerak-ki, "ilm-ma'rifatda oldinga ketib qolgan Yaponiya, Janubiy Koreya, Skandinaviya mamlakatlari" deb eslashga aslo o'rin qolmasin. Har qanday ilm-ma'rifat yo'nalishlari va mafkuraviy salohiyat millatning ilm-ma'rifatini va bajaruvchanlik qobiliyatini oshirishga xizmat qilishi kerak. Bu yo'nalish chuqur o'rganilishi lozim bo'lgan yo'nalishdir.

Анатация: *В данной статье с первых дней независимости нашей страны вопросы образования рассматриваются как одна из приоритетных задач государственной политики.*

У нас есть мыслители, которые могут быть примером для всех в этом отношении. Мы должны этим гордиться, продолжать их путь и применять их уроки в жизни, чтобы не осталось места для воспоминаний о том, что «Япония, Южная Корея, скандинавские страны ушли вперед в науке». Любые направления науки и образования, идеологического потенциала должны служить повышению уровня знаний и работоспособности нации. Это направление требует углубленного изучения.

Annotation: *In this article, since the first days of our country's independence, educational issues have been considered as one of the priority tasks of state policy.*

We have thinkers who can be an example to everyone in this regard. We should be proud of this, continue their ways and apply their lessons to life, so that there is no place left to remember that "Japan, South Korea, and Scandinavian countries have gone ahead in science." Any directions of science and education and ideological potential should serve to increase the nation's knowledge and ability to perform. This direction is a direction that needs to be studied in depth.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

Kalit so'zlar: *etika, odob, ilm-fan, mashg'ulot, ma'ruza, manaviyat inson va shaxs, jamoa, ozoda, o'qish va o'qitish, boshlang'ich, shahsiy, ko'ngli toza, poklik, madaniyat, vatanparvarlik, maqsad.*

Ta'lim – bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini xayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi. Ta'lim jarayonida ma'lumot olinadi va tarbiya amalga oshiriladi. Ta'lim tor ma'noda o'qitish tushunchasini anglatadi. Lekin u faqat turli tipdagi o'quv yurtlarida o'qitish jarayonini emas, oila, ishlab chiqarish va boshqa sohalarda ma'lumot berish jarayonini ham bildiradi.

Tarbiya - shaxsning ma'naviy va jismoniy holatiga muntazam va maqsadga muvofiq ta'sir etish va pedagogik jarayonda ta'lim maqsadlarini amalga oshirish uchun pedagog va tarbiyalanuvchilarning maxsus tashkil etilgan faoliyati.

Bir so'z bilan aytganda - ta'lim modellarini optimallashtirish maqsadida, inson va texnika reserslari va ularning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda, butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yaratish, qo'llash va aniqlash tizimidir

O'qituvchi o'z mutaxassisligi bo'yicha bilimidan qat'iy nazar, o'quv jarayoniga qadam qo'yar ekan, pedagogik va psixologik bilimlar, texnologiya va o'qitish metodikalari yig'indisi bo'lgan zarur pedagogik minimumlarni egallagan bo'lishi shart.

Shu bilan bir qatorda ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan innovatsion texnologiyalarni hayotga qo'llay olish ko'nikma va malakalarini doimiy shakllantirib borishi zarur.

Davlatimiz rahbari o'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan soha vakillariga yo'llagan tabrik nutqida ta'kidlaganidek, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir deb takidlab o'tgan.

Shuning uchun ham, O'zbekistonda ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish, malakali kadrlar tayyorlash maqsadlariga katta kuch va mablag'lar yo'naltirilmoqda. Maktabgacha ta'lim, maktab va oliy ta'lim tizimlari, ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatida sifat o'zgarishlari ro'y bermoqda.

Biz ustozni otaday ulug' deb bilgan, doimo ardoqlagan ma'rifatparvar xalqning vakillarimiz. Men ham o'qituvchi, muallim deganda o'zim uchun eng aziz va hurmatli bo'lgan, ziyoli va zamonaviy, samimiy va mehribon insonlarni tasavvur qilaman. Chunki hammamizga ham shu muallim saboq va ta'lim berib, mehribon ot-onalarimiz qatorida tarbiyalagan, – dedi davlat rahbari yig'ilish avvalida. – Bugungi kunda O'zbekistonning yangi taraqqiyot davri poydevorini yaratyapmiz. Bunda bizning eng yaqin ko'makchilarimiz ustoz va murabbiylar, ilmiy va ijodkor ziyolilardir.

Har bir oila, har bir bola hayoti maktab bilan bog'langani, bu masala davlatning, jamiyatning eng muhim ishi ekani ta'kidlandi.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

Hammamiz aziz farzandlarimiz hayoti va taqdirini o'qituvchi va murabbiylarga ishonib topshiramiz. Mana shunday beqiyos boylik posbonlari, kelajak bunyodkorlari bo'lgan bu mo'tabar zotlarga munosib hurmat-ehtirom ko'rsatishimiz kerak, – dedi davlat rahbarimiz.

Yig'ilishda bugungi modernizatsiya jarayonlari, islohot va o'zgarishlar natijadorligi maktab ta'limiga, yangi avlod kadrlarini yetishtirish masalasiga borib taqalayotgani qayd etildi. Shu bois maktab direktorlari va muallimlarga ko'p narsa bog'liq. Ular qishloq va shaharlarda ta'lim-tarbiya, madaniyat va ma'naviyat tarqatadigan fidoyi kishilardir.

Maktablar nafaqat ta'lim maskani, balki mahallaning madaniy, intellektual markazi bo'lishi zarur.

Ma'lumki, mamlakatimiz ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish maqsadida davlat rahbarimizning farmoni loyihasi ishlab chiqildi. Mazkur hujjat "regulation.gov.uz" portaliga qo'yilib, barcha hududlarda, mahalliy kengashlarda va maktab jamoalarida ota-onalar ishtirokida keng muhokama qilindi.

Farmon loyihasida ta'limdagi hozirgi muammolarni hal qiladigan, yaqin besh yilda natijasini ko'rsatadigan va keyingi taraqqiyot darajasini belgilab beradigan maqsadlar qamrab olingan.

Jumladan, jamiyatda muallimning obro'-e'tibori va maqomini ko'tarish, o'quv dasturlari va metodikasini to'liq qayta ko'rib chiqish, maktabni ta'limning keyingi bosqichlari bilan uzviy bog'lash, o'qituvchilarni ortiqcha qog'ozbozlikdan xalos etib, o'z ustida ko'proq ishlashi uchun sharoit yaratish va shuni rag'batlantirish, maktab infratuzilmasi va undagi ma'naviy muhitni yaxshilash kabi masalalarning yechimlari aniq belgilab berilmoqda.

Eng asosiysi, joylardagi rahbarlarning, shuningdek, mahalliy kengashlarning ushbu muhim masalaga yondashuvi va e'tiborini tubdan o'zgartirish, ularning mas'uliyati, javobgarligi va hisobdorligi mexanizmlari kiritilmoqda.

Davlatimiz rahbari avvalo maktablarda o'quv yuklamasi va darslar sonini qayta ko'rib chiqish, o'quvchilarni faqat yodlashga emas, balki fikrlashga chorlaydigan metodika yaratish zarurligini ta'kidladi.

Bu borada Finlyandiya tajribasi misol qilib keltirildi. Ushbu mamlakat umumiy savodxonlik, tabiiy fanlar va matematika bo'yicha dunyoda eng ilg'orlardan biri.

Ta'lim tizimida o'qitish metodikasi o'zgarmasa, ta'lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o'zgarmaydi, – dedi davlat rahbari Sh.M.Mirziyoev.

Dunyodagi zamonaviy o'quv dasturlari, o'qitish metodikalarini o'rganib, yurtimiz umumta'lim maktablarida joriy qilish muhimligi ta'kidlandi.

Xalq ta'limi vazirligiga ushbu tajriba asosida milliy o'quv dasturini ishlab chiqib, 2021/2022 o'quv yilidan boshlab ta'lim jarayoniga sinov tariqasida tatbiq etish vazifasi qo'yildi.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

Yangi metodikani samarali yo'lga qo'yish uchun barcha maktab o'qituvchilari videoaloqa orqali xorijiy mutaxassislar ishtirokida o'qitiladi. Eng muhimi, bu jarayonlarga pedagogika yo'nalishidagi universitet va institutlar ham jalb qilinib, pedagog kadrlar tayyorlash metodikasi ham yangilanadi.

Shuningdek, matematika, fizika, kimyo, biologiya va informatika fanlari bo'yicha chet ellardagi ilg'or darsliklar chuqur o'rganib chiqiladi.

Maktablarni ta'mirlash, obodonlashtirish, isitish kabi xo'jalik masalalariga hokimlar shaxsan mas'ul ekani eslatib o'tildi. Shuningdek, oliy o'quv yurtiga kira olmagan bitiruvchilarni muayyan kasb-hunar yoki tadbirkorlikka jalb etish muhim.

Shu bois kelgusi yildan boshlab 7-sinfdan o'g'il-qizlarning kasbga qiziqishlarini aniqlash va bosqichma-bosqich kasbga yo'naltirish amaliyoti joriy qilinishi belgilandi. Hududdagi sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish korxonalari maktablarga birlashtiriladi.

Har bir maktab reytingini hamda shu asosda ta'lim sifati bo'yicha tuman, shahar va viloyatlar reytingini ishlab chiqish zarurligi aytiladi.

Reyting natijalariga qarab, maktab direktorlari va o'rinbosarlari, o'qituvchilar, hokimlar va ularning ta'lim bo'yicha maslahatchilari faoliyatiga baho beriladi.

Bugungi kunda pedagoglar har 5 yilda, rahbar kadrlar esa har 3 yilda malaka oshirmoqda.

Toshkent davlat pedagogika universiteti pedagog kadrlar malakasini oshirishda Respublikada yetakchi oliygoh etib belgilanadi. Avloniy nomidagi malaka oshirish instituti esa ta'lim muammolarini chuqur o'rganadigan ilmiy-tadqiqot dargohi bo'ladi.

O'qituvchilar toifasini belgilash tartibini ham tubdan qayta ko'rib chiqish lozimligi ta'kidlandi.

Bugungi kunda xalq ta'limi tizimida mehnat qilayotgan 490 mingdan ziyod pedagoglarning 4 foizi oliy, 15 foizi birinchi toifaga ega. 4 bosqichdan iborat amaldagi attestatsiya tizimida qog'ozbozlik hanuzgacha saqlanib qolgan.

Shu bois mutasaddilarga toifa berish tartibini soddalashtirish, pedagoglar bilimini yil davomida baholash imkonini beruvchi 2 bosqichli tizimga o'tish bo'yicha ko'rsatma berildi.

Yana bir muammo – ta'lim sifati pastligi, moddiy-texnika bazasi yetarli bo'lmagani sababli ayrim maktablar to'liq quvvatda ishlamayapti.

Maktablarda zamonaviy boshqaruvni joriy qilish masalalariga ham to'xtalib o'tildi. Endi maktab direktorlarini lavozimga tayinlash bevosita mahalliy kengashlar bilan kelishilgan holda, tanlov asosida amalga oshiriladi.

Har bir nomzod maktabning ko'rsatkichlarini kelgusi 3 yilda yuqori darajaga olib chiqish bo'yicha o'z dasturi bilan tanlovda ishtirok etadi va har yili kengashlar oldida hisobot beradi.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

Bundan asosiy maqsad – maktablarning samarali faoliyatini tashkil etish, direktorlar ishiga noqonuniy aralashuvlar va kadrlar qo'nimsizligiga barham berish.

Davlatimiz rahbari bu ishlarga hududlarda yashab, ijod qilayotgan shoir va yozuvchilarni keng jalb qilish, maktablarning direktor jamg'armasidan va mahalliy byudjet mablag'laridan ularga oylik maosh to'lash lozimligini ta'kidladi.

Oliy ta'lim sohasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish va qamrovni oshirish, har bir hududda kamida bittadan nodavlat oliy bilim yurti tashkil qilish muhimligi qayd etildi.

Bu – yillar davomida ko'rinmaydigan, ammo natijasi yaqin 10-15 yilda butun mamlakat qiyofasini tubdan o'zgartirishga asos bo'ladigan qudratli manba, – dedi davlat rahbari Sh.M.Mirziyoev.

Parlament vakillari, shuningdek, joylardagi mahalliy kengash deputatlaridan ta'lim tizimidagi o'zgarishlarni xalqimizga yetkazib, daxldorlik hissini oshirish, farmon qabul qilingach, ijrosini nazoratga olish, o'z tajribalari bilan amaliy yordam berish so'raldi.

Yig'ilishida hokimlar, oliy ta'lim muassasalari rektorlari, maktab direktorlari, pedagoglar ta'lim-tarbiya sifatini oshirishga oid fikr-mulohazalarini bildirdi.

Xulosa tariqasida yangi bilimlarni o'zlashtirishga mo'ljallangan hamda darsda hamkorlikda o'qitish tamoyillari asosida individual ishlashga undaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sh.M.Mirziyoev: Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza. 2017 yil 14 yanvar – Toshkent : O'zbekiston, 2017. - 104 b.

2. Yuldashev A.E. —Ta'lim jarayonini boshqarishda tizimli tahlil va qaror qabul qilish texnologiyalari moduli bo'yicha O'QUV–USLUBIY MAJMUA. Toshkent – 2019.

3. Abu Nasr Forobiy —Fozil odamlar shahrill., Yangi Asr Avlodi – 2016.

4. Temur Tuzuklari., Fan va texnologiya – 2014.

5. B.Voxobjonov, M.Komoldinov. Innavatsion pedagogik texnologiya asoslari. —Talqin 2010 y.

6. A.Abduqodirov, A.Pardaev. Ta'limda innavatsion texnologiya. T.: 2008 y.

7. N.T.Omonov. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik maxorat.

T.: —Iqtisod Moliya 2009 y.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR:

1. Milliy istiqlol g'oyasi (Bakalavr bosqichi uchun darslik). – T.: Akademiya, 2005. – 368 b.
2. Pedagogika nazariyasi. X.Ibragimov, Sh.Abdullaeva. T.: Fan va texnologiyalar, 2008-yil.
3. Qo'chqorov S., & Azamatov, J. A. (2022). TA'LIM-TARBIYa TIZIMI TARAQQIYoTINING YaNGI BOSQICHI. SO'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 1(4), 200-204.
4. Qo'chqorov, S. (2022). YaNGI PEDAGOGIK TEXOLOGIIYaLAR. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(11), 375-377.
5. Qo'chqorov S., & Azamatov, J. A. (2022). TA'LIM-TARBIYa TIZIMI TARAQQIYoTINING YaNGI BOSQICHI. SO'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 1(4), 200-204.
6. Qo'chqorov S. (2022). YaNGI PEDAGOGIK TEXOLOGIIYaLAR. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(11), 375-377
7. Maksudov, U. K. "SCIENTIFIC-THEORETICAL ANALYSIS OF THE PROMOTION OF STUDENT-YOUTH INITIATIVES BASED ON THE GENDER APPROACH." Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities 11.3 (2023): 688-693.
8. Kurbanovich, M. U. "Pedagogical tendencies of the development of social activity skills of primary school pupils through the use of folklore." ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 10.5 (2020): 562-566..
9. Максудов У. и Й. Эралиевы. "PEDAGOGIKA FANLARINI O 'QITISHDA MULTIMEDIALI VOSITALARDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI." TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI 2.12 (2022): 68-73.
10. Qurbonovich, Maqsudov Ulug'bek, and Rahmonova Ruqiya Zuhriddinovna. "TA'LIM JARAYONIDA MULTIMEDIYA TEXNOLOGIYALARINING ISTIQBOLLARI." (2022).
11. Максудов, У. Қ. (2019). УСТНОЕ НАРОДНОЕ ТВОРЧЕСТВО КАК ФАКТОР СОЦИАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ ЛИЧНОСТИ РЕБЕНКА. In EUROPEAN RESEARCH: INNOVATION IN SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY (pp. 49-51).